



ZAMONAVIY ADABIYOTDA TIL MADANIYATI

Mardonova Lobar Umaraliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
f.f.f.d, dotsent
lobarmardonova40@gmail.com
Tel:+99888 810 79 00
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377356>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilining rivojlanish yo'nalishlari va bugungi adabiyotimizdagi o'zgarishlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek tilining maqomi, adabiy tilning boyishi, til madaniyatining ommalashuvi hamda yosh ijodkorlar ijodida zamonaviy adabiy jarayonlar aks ettirilgan. Shuningdek, til va adabiyotning xalq ma'naviyatidagi o'rni yoritiladi. Adabiyotning til boyligiga qo'shgan hissasi, zamonaviy adabiy asarlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: sabr, matonat, xalqining tarixi, ma'naviy tayanchlari, aql, iroda, milliy ruh, tarixiy xotira, ajdodlar merosiga ehtirom

Аннотация: В данной статье анализируются тенденции развития современного узбекского языка и изменения, происходящие в современной узбекской литературе, во взаимосвязи между ними. Отражены статус узбекского языка после обретения независимости, обогащение литературного языка, популяризация языковой культуры, современные литературные процессы в творчестве молодых деятелей искусства. Также освещается роль языка и литературы в национальной духовности. Анализируется вклад литературы в обогащение языка, значение современных литературных произведений в воспитании подрастающего поколения

Ключевые слова: терпение, стойкость, история народа, духовные основы, разум, воля, национальный дух, историческая память, уважение к наследию предков.

Abstract: This article analyzes the development trends of the modern Uzbek language and changes in our literature today in their interrelation. The status of the Uzbek language after independence, the enrichment of the literary language, the popularization of language culture, and modern literary processes in the work of young artists are reflected. The role of language and literature in national spirituality is also highlighted. The contribution of literature to the richness of the language, the importance of modern literary works in the education of the younger generation are analyzed.

Keywords: patience, fortitude, history of the people, spiritual pillars, mind, will, national spirit, historical memory, respect for the heritage of ancestors

Kirish (введение / introduction). Til — har qanday xalqning milliy belgisidir. Har bir millatning ma'naviy dunyosi, tarixiy xotirasi, ruhiyati, orzu-intilishlari va tafakkuri til orqali namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi uchun ona tili — o'zlik va g'urur manbai, xalq birligining kuchli asosi bo'lib kelmoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining maqomi mustahkamlanib, u davlat tili sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol qo'llanilmoqda. Til taraqqiyoti esa, eng avvalo, adabiyot orqali o'z ifodasini topadi. Chunki adabiyot tilda yaratiladi, til esa adabiyot orqali boyiydi, nafislashadi, go'zallashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tili xalqimizning kundalik hayotida, ta'lim-tarbiya jarayonida, ommaviy axborot vositalarida, ilm-fan, siyosat va madaniyat sohalarida keng qo'llanilmoqda. Yozma va og'zaki nutq madaniyatiga e'tibor oshib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida adabiy tilga qiziqish ortmoqda, yangi adabiy asarlarni o'qish, o'z fikrini to'g'ri va ravon ifodalashga intilish kuchaymoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilidan noto'g'ri foydalanish holatlari ham uchrab turadi. Shu sababli til madaniyatini targ'ib qilish, adabiy til me'yorlarini keng ommaga yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridandir.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti bugun yangi bosqichda rivojlanmoqda. Ijodkorlar milliy o'zlik, tarix, ma'naviyat, Vatan va inson taqdiri kabi mavzularni yangicha qarashlar bilan yoritishga intilmoqdalar. Erkinlik, adolat, xalqparvarlik kabi g'oyalar badiiy asarlarning asosiy yo'nalishlariga aylangan.

Yosh ijodkorlar avlodi adabiyotga yangi ruh olib kirmoqda. Ularning she'r, hikoya va romanlarida bugungi kunning muammolari, yoshlar hayoti, orzu-intilishlari, Vatanga bo'lgan muhabbati badiiy tasvir orqali ifodalanmoqda. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotining zabardast vakillari — Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Ali kabi adiblarning asarlari hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

To'lqin Hayitning mustaqillik yillaridagi ijodiga nazar solar ekanmiz, uni tor ma'noda emas, keng ko'lam kasb etganiga ham guvoh bo'lamiz. Hatto mavzumiz doirasida qolgani bizni hayron qoldirdi. Ma'lumki, rus adibi Dostoevskiyning "Jinoyat va jazo", "Telba" va boshqa mashhur asarlarini dunyo yuzini ko'rishida uning vafodor ayoli Anna Grigorevnaning o'rni katta bo'lgan. Adibning ana shu ayol haqidagi "Annaning oq sochig'i" asari juda qiziqarli o'qilishi bilan birga Annaning iztiroblari va jasorati yorqin aks ettirilgani bilan diqqatga sazovordir. Shu asar bo'yicha so'rov o'tkazilgan 10 nafar kitobxonning barchasi asarni bir o'tirishda zo'r huzur va qiziqish bilan o'qib chiqqishganini bildirishdiki, bu ham ijodkorning mahoratidan, o'z ustida ishlay bilishidan darak beradi.

Yozuvchining "Ulug' momolar haqida qo'shiq" momolarni shunchaki ona sifatida emas, balki xalqning ma'naviy boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'radi. Bu obrazlar orqali u millatni, uning urf-odatlarini, axloqiy tamoyillari va xotin-qizlarga bo'lgan munosabatini yoritadi. To'lqin Hayit ijodida tarixiy shaxslarning siymosini tiklash — bu adabiy jarayon emas, balki milliy o'zlikni anglash, unga bog'lanish va kelajakka yuzlanish yo'lidagi ma'naviy harakatdir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Adabiyot o'zbek tilining boy xazinasini saqlab qoladi, uni yanada sayqal beradi. Badiiy asarlar orqali so'z boyligi, iboralar, maqollar, sheva va lahjalar adabiy tilga singib boradi. Adabiyot tilda estetik ta'sir uyg'otadi, uni nafis, shirali va obrazli qiladi. Shu bois, zamonaviy o'zbek tili taraqqiyoti bevosita bugungi adabiyot bilan chambarchas bog'liqdir.

Muallif aytishicha, ana shu o'rinda u yozishni bir necha hafta to'xtatib qo'ygan. Xush, qiz o'z juftu halolining bunday o'rtanishini eshitib, unga yarasha qanday so'z aytishi, qay yo'sinda ko'ngliga mos javob berishi lozim edi? Bizga o'qish oson, ha shunday javob topibdi-da,

deb o'ylaymiz, ammo hammaga mos keladigan so'z topishdan mushkuli bo'lmasa kerak."–*Biz o'z Vatanimizdamiz, sira ham kuyinmang*", – deydi Malikabonu o'z yoriga qarab.

Ana shu badiiy ifoda orqali muallif yurtning har qarichi muqaddasligini, uning har giyohini ko'zga surtish lozimligini uqdirmoqchi bo'ladi va bu gapni yalang'och tarzda emas, balki ehtirosli badiiy lavhalar orqali chizib ko'rsatganligining o'zi ham diqqatga sazovordir.

To'lqin Hayitning mustaqillik yillaridagi ijodiga nazar solar ekanmiz, uni tor ma'noda emas, keng ko'lam kasb etganiga ham guvoh bo'lamiz. Hatto mavzumiz doirasida qolgani bizni hayron qoldirdi. Ma'lumki, rus adibi Dostoevskiyning "Jinoyat va jazo", "Telba" va boshqa mashhur asarlarini dunyo yuzini ko'rishida uning vafodor ayoli Anna Grigorevnaning o'rni katta bo'lgan. Adibning ana shu ayol haqidagi "Annaning oq sochig'i" asari juda qiziqarli o'qilishi bilan birga Annaning iztiroblari va jasorati yorqin aks ettirilgani bilan diqqatga sazovordir. Shu asar bo'yicha so'rov o'tkazilgan 10 nafar kitobxonning barchasi asarni bir o'tirishda zo'r huzur va qiziqish bilan o'qib chiqqishganini bildirishdiki, bu ham ijodkorning mahoratidan, o'z ustida ishlay bilishidan darak beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Zamonaviy o'zbek tili va bugungi adabiyotimiz — bu ikki kuchli ma'naviy asos xalqimizning o'zligini, tarixini, madaniyatini saqlashga xizmat qilmoqda. Til — millat yuragi bo'lsa, adabiyot — uning ruhi va tafakkuridir. Bugungi kunda bu ikki sohani rivojlantirish, ularni asrab-avaylab, yangi avlodga to'g'ri yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdi Adabiyot yashasa — til yashaydi, til yashasa — millat barhayot bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbek tili va adabiyoti darsligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
- 2.Qodirov, I. O'zbek tili va uning taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2018.
- 3.To'lqin Hayit. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.
- 4.Karimov, Sh. Zamonaviy o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Movarounnahr, 2021.
- 5.Erkin Vohidov. Tanlangan she'rlar va dostonlar. – Toshkent, 2016.
- 6.Islomova, G. O'zbek tilining zamonaviy muammolari. – Toshkent, 2022.
- 7.Abdulla Oripov. Adabiyot va til haqida maqolalar. – Toshkent, 2015.
- 8.Mavlonov, S. Til madaniyati va adabiyot. – Toshkent, 2019.